



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI

2024-yil “25” oktabr

233/09-2-qr - sonli

Toshkent sh.

“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatining yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 58- va 59-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda PQ – 422-sor hamda 2024-yil 24-maydagi PQ – 187-son qarorlari, “O‘zbek geologiya qidiruv” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) ustavi va kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 11-oktabrdagi 11-2024-son bayoni hamda jamiyatning 2024-yil 16-oktabrdagi 01-14-1254-son murojaatiga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

1. Quyidagilar:

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 59-moddasiga muvofiq, jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolat doirasiga kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi “Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 187-son qarorida “Regionalgeologiya” DMning tegishli aktivlarini qoldiq (balans) qiymatda jamiyat tasarrufiga o‘tkazilganligi;

Jamiyat yagona aksiyadorining 2024-yil 9-iyuldagi 153/09-2-qr-son qarori bilan jamiyatning yangi tahrirdagi ustavi tasdiqlanib, unga asosan “Regionalgeologiya” DMning faoliyat turlari, xizmatlari jamiyatga o‘tkazilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-aprelda “Davlat ishtirokidagi yirik korxonalarini transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 163-son qarorida 2024-yil 1-iyuldan boshlab, davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, jumladan boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun kuzatuv kengashiga bo‘ysunadigan korporativ kotibiyat tashkil etilishi nazarda tutilganligi;

Jamiyat Ustavining 8.6-bandida jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi vakolatlari doirasiga kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ – 422-son qaroriga asosan respublika mulkida bo'lgan ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, jumladan tijorat banklarining (mahalliy hokimiyat organlari muassisligidagi jamiyatlardan tashqari) tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, shuningdek, ularga o'zgartirish kiritish bo'yicha masalalarni kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng, aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish tartibini joriy etish belgilanganligi;

Jamiyat kuzatuv kengashi majlisining 2024-yil 11-oktabrdagi 11-2024-son bayoni bilan jamiyatning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi loyihasi ma'qullanganligi va tasdiqlash maqsadida yagona aksiyador ko'rib chiqishi uchun kiritish bo'yicha qaror qabul qilinganligi;

Tog'-kon sanoati va geologiya vaziriligining 2024-yil 23-oktabrdagi 37-3915-son xati bilan jamiyatning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi loyihasi kelishilganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Jamiyatning yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamiyat boshqaruv raisi Sh. Alimov:

ikki hafta muddatda, jamiyatni bilim va amaliy ko'nikmalarga hamda vazifalarni professional darajada amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan malakali kadrlar bilan to'ldirishni ta'minlasin;

yigirma kun muddatda, har bir bo'linmaning nizomi va xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini mazkur qarorga muvofiqlashtirish choralari ko'rsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov